

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020-yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamон iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyatini integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020-yil yanvar oyida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

694,1 mldr. so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

109,5 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'atlari

107,8 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

363,5 ming so'm


*Dastlabki ma'lumotlar*

**Xizmatlar sohasi** — bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'rildi.

Hozirgi kunda intellektual inson mehnati o'ziga xos rivojlanish va ahamiyat kasb etmoqda, uning bo'linishi maxsus ilmiy tayyorgarlikni, ko'p sonli ish o'rinalarini, odamlarning birgalikdagi sa'y-harakatlarini yuqori darajadagi integratsiyalashuvni va ijtimoiy farovonlikni oshirishni talab qiladigan ko'plab mutaxassislik va kasblarni yaratmoqda.

Ushbu tendensiyalar xizmatlar sohasi va boshqaruvi bilan bevosita bog'liq bo'lib, inson faoliyatining boshqa sohalariga nisbatan uning jadal o'sishini belgilaydi. Iqtisodiyotning sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqori daromadi unga xos xususiyatdir. Shu bilan birga, xizmatlar ro'yxati doimiy ravishda kengayib bormoqda.

2020-yil 1-fevral holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 23,8 mingtaga yetdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasida jami 15,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 24,1 % ga oshdi.

2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 64,6 % ni tashkil etdi.

*Taqqoslash uchun:* kuzatilayotgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 15,2 %, qurilish - 10,5 % ga yetdi va atigi 9,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.




2020-yil 1-fevral holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (38,1 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 12,2 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 8,9 % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar




Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,6 % ga teng bo'ldi.


**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-fevral holatiga, xizmatlar sohasida 12,4 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 34,8 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 10,2 %, tashish va saqlash - 9,6 %, axborot va aloqa - 1,7 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,1 %, boshqa turlar - 39,6 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 3,0 mingtaga ko'paydi.

*Dastlabki ma'lumotlar*



**2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi  
(fermer va dehqon xo'jaliklardan tashqari)**



Kuzatilayotgan davrning o'tgan yiliga nisbatan yashash va ovqatlanish sohasida yuqori o'sish – 48,0 % kuzatildi.

Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 0,6 mingtaga ko'paydi va 1,9 mingtaga yetdi.

Shuningdek, savdo xizmatlari bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 35,5 %.


Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1,5 mingtaga ko'paydi va 5,9 mingtani tashkil etdi.

2020-yilning yanvar oyida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 285 birlikga ko'paydi.



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni -  
285 birlik**

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


XXI asrning so'nggi o'n yilligida kichik tadbirkorlik sektorining o'rni ko'p jihatdan yangi mahsulotlarni ixtiro qilish va yangi ish o'rinalarini yaratish qobiliyati tufayli ortdi.

**Taqqoslash uchun:** xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik tadbirkorlik subyektlar ulushi o'tgan yilning shu davrida 57,9 % ekvivalentida qayd etildi.


**2020-yil 1-fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida 77,9 % kichik tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-fevral holatiga yirik tashkilotlarning ulushi 22,1 % ga yetdi.



● Kichik tadbirkorlik subyektlari   ● Yirik tashkilotlar



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2828 taga ko'paydi va 11974 tani tashkil etdi, ularning o'sishi esa 30,9 % ga oshdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiyligi sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 59,0 % ga yetdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik sektori barqaror iqtisodiy o'sishga, ish o'rirlari yaratishga, daromadlarning o'sishiga va aholining farovonligini ta'minlashga hissa qo'shmaqda.

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlarining va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funktsiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



Xizmatlar hajmi -  
694,1 mldr. so'm


Hajmnning o'sishi -  
133,7  
mldr. so'm

O'sish sur'ati -  
109,5 %

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 694,1 mldr. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 133,7 mldr. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 9,5 % ni tashkil etdi.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi % da  
(2020-yil yanvar oyida)**



Eng katta ulush Buxoro shahri (59,6 %), G'ijduvon (10,5 %), Buxoro (3,7 %) tumanlari va Kogon shahri (3,5 %) da qayd etildi.

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor (1,3 %), Kogon (2,2 %), Olot (2,3 %) va Shofirkon (2,4 %) tumanlarida kuzatildi.


Ijtimoiy, siyosiy, jamoatchilik muammolarni, hududlarning iqtisodiy salohiyatini ko'tarmasdan, ularning barqaror rivojlanishisiz hal qilib bo'lmaydi.

Hududiy siyosat maqsadlariga faqat iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan loyihalarni amalga oshirish orqali erishish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda hududlarning moliyaviy salohiyatini yuksaltirish va unda xizmatlar sohasining rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini amalga oshirish doirasidagi loyihalar bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytiradi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Kogon (105,8 %), G'ijduvon (105,0 %), Peshko' (105,0 %) tumanlari, Buxoro (113,5 %) va Kogon (105,8 %) shaharlarda qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari % da  
(2020-yil yanvar oyida)**



Nisbatan past o'sish sur'atlari Vobkent (104,7 %), Buxoro (104,5 %), Romitan (104,1 %) va Jondor (103,7 %) tumanlarida kuzatildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy  
ko'rsatkichlari**  
*(2020-yil yanvar oyida)*

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>694 130,2</b>	<b>109,5</b>	<b>363,5</b>
Olot	15 676,2	104,3	159,6
Buxoro	25 603,1	104,5	155,5
Vobkent	24 171,0	104,7	174,9
G'ijduvon	72 874,8	105,0	241,9
Jondor	16 460,3	103,7	95,4
Kogon	15 603,8	105,8	202,4
Qorako'l	20 540,3	104,5	126,4
Qorovulbozor	9 222,0	88,0	506,7
Peshku	17 436,8	105,0	143,6
Romitan	21 620,9	104,1	154,5
Shofirkon	16 426,0	104,1	93,6
shaharlar:			
Buxoro shahri	413 858,1	113,5	1 482,3
Kogon shahri	24 636,9	105,8	404,5

<sup>\*)</sup> Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Buxoro shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 91,5 mlrd. so'mga oshdi va 413,9 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar G'ijduvon (72,9 mlrd. so'm), Buxoro (25,6 mlrd. so'm), Vobkent (24,2 mlrd. so'm) va Kogon shahri (24,6 mlrd. so'm) da qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
363,5 ming so'm

2019-yil yanvar oyiga nisbatan



O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 65,4 ming so'mga oshdi va 363,5 ming so'mga teng bo'ldi, uning o'sishi 7,8 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda postindustrial axborot jamiyatni shakllanishi bilan xizmatlar sohasining roli tobora oshib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi - jamiyatning muvaffaqiyatli ravnaq topishiga asosdir. Ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar xizmatlar sohasining o'sish omili hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insонning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'llim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengayib boradi.


**Shahar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi ming so'm  
(2020-yil yanvar oyida)**

Ushbu ko'r-satkich bo'yicha Buxoro shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1482,3 ming so'm ekvivalentida qayd etildi. Kogon (202,4 ming so'm), Vobkent (174,9 ming so'm) tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi nisbatan past bo'ldi.



Aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bu aholi soni hisoblanadi. Aholi soni kam bo'lgan hududlarda, aholi jon boshiga bozor xizmatlari hajmi yuqori. Masalan, Kogon shahrida 2020-yil 1-fevral holatiga aholining soni 60,9 ming kishini tashkil qildi, 2020-yilning yanvar oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 404,5 ming so'mga yetdi.

**Ayrim tumanlar bo'yicha aholi jon  
boshiga ko'rsatkichlarni taqqoslash  
(2020-yil yanvar oyida)**



Shu bilan birga, G'ijduvon tumanida aholining soni uch baravarga ko'p (301,2 ming kishi), lekin aholi jon boshiga xizmatlar hajmi atigi 241,9 ming so'mni tashkil etdi.

• Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Buxoro (12,7 %) va Kogon (4,9 %) shaharlari, Kogon (3,5 %) va Vobkent tumanlari (3,0 %) da qayd etildi.


• Nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Jondor (101,8 %), Romitan (102,2 %), Shofirkon (102,5 %) va Olot (102,6 %) tumanlarida qayd etildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati - bu mahalliylashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali mintaqaga iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

Bugungi kunda xizmatlar sohasi - zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tizimni tashkil etuvchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmay, jamoat hayotidagi ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga qoshilib boradi va iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan chambarchas bog'liqdir.

## **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi % da (2020-yil yanvar oyida)**



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmining bir oz oshishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,3 % ga yetdi. Shuningdek sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 2,0 %, kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, shuningdek shaxsiy xizmatlar - 2,1 % bo'yicha uncha yuqori bo'lмаган ulush qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020-yil yanvar oyida)**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>694 130,2</b>	<b>109,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	33 709,1	109,4
Moliyaviy xizmatlar	115 969,5	151,5
Transport xizmatlari	157 043,0	100,2
shu jumladan:		
avtotransport xizmatlari	144 654,1	100,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	32 092,2	100,2
Savdo xizmatlari	216 382,5	102,8
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	17 647,5	106,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	30 126,0	108,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	13 908,5	112,8
Ijara xizmatlari	19 369,8	109,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	14 495,8	106,7
Shaxsiy xizmatlar	14 690,7	103,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8 845,1	108,4
Boshqa xizmatlar	19 850,5	110,6

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari % da  
(2020-yil yanvar oyida)**

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (151,5 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (112,8 %), ijara xizmatlari (109,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (109,4 %) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (108,4 %) qayd etildi.

Yuqori bo'limgan o'sish transport xizmatlari shuningdek yashash va ovqatlanish xizmatlarida (100,2 %) belgilandi.



Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni yetkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 31,2 % ni tashkil etib, bu 216,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


### **Savdo xizmatlari tarkibi % da**

*(2020-yil yanvar oyida)*

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rtdan uch qismidan ko'proq aniqrog'i 82,7 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar oyida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 10,7 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.


2020-yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 116,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,1 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 51,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi -  
116,0 mlrd. so'm



O'sish sur'ati -  
151,5 %

Xizmatlarning jami  
hajmidagi ulushi -  
16,7 %



Moliyaviy xizmatlar umumiylajida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 92,0 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 5,9 % oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urta-xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar umumiylajida moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas va u 2,1 % ni tashkil etadi.



### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi

**33,7 mldr. so'm**



### O'sish sur'ati

**- 109,4 %**

### Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi

**4,9 %**



2020-yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 33,7 mldr. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati 109,4 % ga yetdi. Ko'r-satilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Nashriyotchilik xizmatlari  
**2,0 %**



Televidenie dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar  
**0,4 %**



Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar  
**0,8 %**



Telekommunikatsiya xizmatlari  
**95,6 %**



Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari  
**0,5 %**



Axborot sohasidagi xizmatlar  
**0,7 %**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni tele-kommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 95,6 % ni tashkil etdi. Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari – 2,0 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar 0,5 %, axborotlashtirish xizmatlari – 0,7 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar – 0,8 %, televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar – 0,4 % ni tashkil etishi qayd etildi.

2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2020-yil yanvar oyida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 30,1 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 4,3 % ni tashkil etdi.



## Ta'lim sohasidagi xizmatlar



Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi, %

4,1 %

2019-yil  
yanvar oyida

23,1 mldr.  
so'm



4,3 %

2020-yil  
yanvar oyida

30,1 mldr.  
so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

O'sish 7,0 mldr. so'mga

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi bozor xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida qayd etildi. 2020-yil yanvar oyida 21,0 mldr. so'mga yetdi. Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu yerda joylashganligidadir.

O'tgan yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 100,2 % ni tashkil etdi, hajmi esa 6,2 mldr. so'mga oshdi va 32,1 mldr. so'mga yetdi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



25,9  
mldr. so'm

2019-yil  
yanvar

O'sish  
6,2 mldr. so'mga



32,1  
mldr. so'm

2020-yil  
yanvar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi % da (2020-yil yanvar oyida)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 84,7 % bilan ustunlik qiladi.

2020-yil yanvar oyida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,3 % ni tashkil etdi.

Ushbu turdagи xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Hozirgi kunda mamlakatda tibbiyot va sog'liqni saqlash bir xil yo'nalishda mustaqil O'zbekiston fuqarolarining hayot darajasi va sifatini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan dinamik o'zgarishlar bilan rivojlanmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.



2020-yil yanvar oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 3,1 mlrd. so'mga oshdi va 13,9 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish surʼati 112,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 1,7 mlrd. so'mga ko'paydi va 7,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 53,6 % ni tashkil etdi.

## Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarining o'sish sur'atlari % da

(2020-yil yanvar oyida)

Shu bilan birga, ushbu turdagи xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'atlari Kogon shahri (130,1 %), Jondor (127,8 %) va Olot (123,7 %) tumanlarida qayd etildi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'rta, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tuzilmaviy moslashtirishni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hal qiluvchi shartdir.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Albatta, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiya, soliq va pul-kredit davlat siyosati, ilmiy-texnikaviy ishlarni takomillashtirish, shuningdek, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida sifatli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'lumi****65-223-79-41**